

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025  
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,  
132 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish .....                              | 12  |
| <b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>                                                                                                |     |
| Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari .....                                                         | 19  |
| <b>Usmonov Abbos Valijon o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises .....                                                   | 23  |
| <b>Sheraliyev Axror Sodiqovich</b>                                                                                                       |     |
| Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish .....                              | 30  |
| <b>Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi</b>                                                                 |     |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari .....                           | 37  |
| <b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>                                                                                                     |     |
| Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi .....                                             | 42  |
| <b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari .....                                | 46  |
| <b>Kurbonova Raxima Jamshedovna</b>                                                                                                      |     |
| Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlarning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati .....                             | 49  |
| <b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>                                                                                                   |     |
| Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar .....                                 | 54  |
| <b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>                                                                                                      |     |
| Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка .....                                                  | 58  |
| <b>Юсуфов Асфандиёр Элдор угли</b>                                                                                                       |     |
| Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari .....                                        | 63  |
| <b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>                                                                                                 |     |
| Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi .....                                                 | 67  |
| <b>Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich</b>                                                                                               |     |
| "Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik ..... | 73  |
| <b>N.D.Maxmudova</b>                                                                                                                     |     |
| Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili .....                   | 77  |
| <b>Iskandarov Kudrat Shuxratovich</b>                                                                                                    |     |
| Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....                                                | 83  |
| <b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>                                                                                               |     |
| Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi .....               | 87  |
| <b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>                                                                                                  |     |
| Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar .....                                             | 91  |
| <b>Qosimova Lola Sultanovna</b>                                                                                                          |     |
| Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari .....                        | 96  |
| <b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>                                                                                                 |     |
| Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar .....  | 100 |
| <b>Rajabov Alibek Xushnadbekovich</b>                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....                 | 106 |
| <b>Primova Shakhnoza Komiljonovna</b>                                                                                                                |     |
| Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari .....                                           | 110 |
| <b>Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi</b>                                                                                     |     |
| Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish..... | 115 |
| <b>Seitlepesov Azamat Orazbayevich</b>                                                                                                               |     |
| Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review .....                                                           | 120 |
| <b>Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi</b>                                                                                                          |     |
| Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....                                                                          | 124 |
| <b>Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li</b>                                                                                                     |     |

# TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGIGA INDIKATIV FOIZLARNING TA'SIRINI BAHOLASH

**Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li**

Toshkent Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0007-7404-3723

[sokhibtiu@gmail.com](mailto:sokhibtiu@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ish tijorat banklarining likvidligini monetar siyosat instrumentlari orqali tartibga solish masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxira talablari va qayta moliyalash stavkasi kabi asosiy monetar vositalarining tijorat banklari likvidligiga ta'siri ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. Maqolada likvidlikning moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, tijorat banklari faoliyatida likvidlikni boshqarish mexanizmlari va O'zbekiston bank tizimi misolida statistik tahlillar keltirilgan. Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarining likvidligini oshirish hamda monetar siyosat vositalarining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ish bank tizimida risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ta'sirini optimallashtirish bo'yicha amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, likvidlik, monetar siyosat, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxira, qayta moliyalash stavkasi, moliyaviy barqarorlik.

**Abstract:** This scientific work is devoted to the analysis of the issues of regulating the liquidity of commercial banks through monetary policy instruments. The study studied the impact of the Central Bank's open market operations, reserve requirements and the refinancing rate on the liquidity of commercial banks from a scientific, theoretical and practical perspective. The article presents the role of liquidity in ensuring the stability of the financial system, liquidity management mechanisms in the activities of commercial banks, and statistical analysis on the example of the banking system of Uzbekistan. Based on the results of the study, proposals and recommendations were developed to increase the liquidity of commercial banks and enhance the effectiveness of monetary policy instruments. This work is of practical importance in reducing risks in the banking system, strengthening financial stability and optimizing the impact of monetary policy on the economy.

**Keywords:** commercial banks, liquidity, monetary policy, open market operations, reserve requirements, refinancing rate, financial stability.

**Аннотация:** Настоящая научная работа посвящена анализу вопросов регулирования ликвидности коммерческих банков посредством инструментов денежно-кредитной политики. В исследовании изучено влияние операций Центрального банка на открытом рынке, обязательных резервов и ставки рефинансирования на ликвидность коммерческих банков с научной, теоретической и практической точек зрения. В статье рассматриваются роль ликвидности в обеспечении устойчивости финансовой системы, механизмы управления ликвидностью в деятельности коммерческих банков, а также статистический анализ на примере банковской системы Узбекистана. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по повышению ликвидности коммерческих банков и повышению эффективности инструментов денежно-кредитной политики. Данная работа имеет практическое значение для снижения рисков в банковской системе, укрепления финансовой стабильности и оптимизации воздействия денежно-кредитной политики на экономику.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, ликвидность, денежно-кредитная политика, операции на открытом рынке, обязательные резервы, ставка рефинансирования, финансовая устойчивость.

## KIRISH

Tijorat banklari likvidligi moliyaviy tizim barqarorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ularning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar likvidligini boshqarishda monetar siyosat vositalari, xususan, foiz stavkalari muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, indikativ foiz stavkalari (Markaziy bank tomonidan belgilangan asosiy stavka va unga yaqin ko'rsatkichlar) banklarning kredit resurslari qiymati, depozit siyosati hamda aktivlar tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari sifatida inflyatsion targetlash tizimining joriy etilishi, ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish va foizlar koridorini shakllantirish jarayonlari kuchaytirildi. Natijada, tijorat banklari uchun indikativ foiz stavkalari bozor sharoitida kapital xarajatlari belgilash, risklarni baholash va likvidlik darajasini optimallashtirishda muhim signal vazifasini bajarmoqda.



Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari likvidligiga indikativ foiz stavkalarining ta'sirini baholash nafaqat amaliy bank menejmenti uchun, balki mamlakatda samarali monetar siyosatni shakllantirishda ham dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklari misolida foiz siyosati va likvidlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, uning dinamikasi va samaradorligi tahlil qilinadi.

Indikativ foiz stavkalari - bu Markaziy bank va moliya bozori tomonidan iqtisodiyotdagi pul mablag'lari qiymatini belgilashda yo'llanma vazifasini bajaradigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularning tarkibiga qayta moliyalashtirish stavkasi, banklararo kredit stavkalari (O/N, 7D, 1M), shuningdek, repo va svop operatsiyalari stavkalari kiradi. Xalqaro moliyaviy amaliyotda indikativ stavkalar bank tizimida likvidlikni samarali boshqarishning eng muhim vositalaridan biri sifatida baholanadi.

Indikativ foiz stavkalari likvidlikka asosan ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, yuqori foiz stavkalari banklar uchun moliyaviy resurslarni qimmatlashtiradi, bu esa ularni markaziy bankdan qo'shimcha resurs jalb qilishdan cheklaydi va kredit berish hajmini qisqartiradi. Natijada bank tizimidagi umumiy likvidlik pasayadi. Bunday yondashuv inflyatsiya yuqori bo'lgan davrlarda qo'llaniladi va pul taklifi qisqartirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsad qilinadi. Ikkinchidan, past foiz stavkalari, aksincha, banklar uchun resurslarni arzonlashtiradi, ularning qo'shimcha mablag'larni jalb qilishini rag'batlantiradi, kreditlar hajmini oshiradi va iqtisodiyotga qo'shimcha pul taklifi orqali umumiy likvidlikni ko'paytirish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Monetar siyosat nazariyasida indikativ foiz stavkalari likvidlikni tartibga solishning eng muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. J.M. Keynes o'zining "Likvidlik afzalliklari nazariyasi"da foiz stavkalari iqtisodiy sub'ektlarning pulga bo'lgan talabini shakllantiruvchi asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, yuqori foiz stavkalari aholini va biznes sub'ektlarini naqd pulni saqlashdan ko'ra qimmatli qog'ozlarga yoki bank omonatlariga yo'naltirishga rag'batlantiradi, bu esa iqtisodiyotdagi umumiy likvidlikni pasaytiradi[1].

M. Fridman esa o'zining monetarizm nazariyasida indikativ stavkalarni doimiy o'zgartirish moliya bozorlarida noaniqlik va turg'unlikni keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, likvidlikni tartibga solish uchun markaziy bank pul taklifi o'sishini uzoq muddatli barqaror sur'atlarda ta'minlashi zarur, chunki qisqa muddatli stavkalar orqali ta'sir etish samarasiz bo'lishi mumkin[2].

Zamonaviy iqtisodchi olimlardan B. Bernanke va J. Teylor indikativ stavkalarining tezkor va qisqa muddatli ta'sirini alohida ta'kidlaydilar. Masalan, Bernanke fikriga ko'ra, markaziy bank tomonidan stavkalarni pasaytirish orqali bank tizimida likvidlikni oshirish mumkin, ammo bu inflyatsiya xavfini kuchaytiradi. Shu bois indikativ stavkalarni tartibga solishda iqtisodiy o'sish sur'atlari va inflyatsiya maqsadlari o'rtasida optimal muvozanat saqlanishi zarur[3]. J. Teylor esa likvidlikni tartibga solishda indikativ stavkalarni iqtisodiy o'sish va inflyatsiya darajasiga mos ravishda avtomatik tarzda belgilashni taklif qilgan va bu usul moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda samarali deb baholangan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham indikativ stavkalarining likvidlikka ta'sirini alohida o'rganib kelmoqdalar. Masalan, Sh.X. Abdullaev va B.X. Xodiev tadqiqotlarida qayta moliyalashtirish stavkasi o'zgarishi tijorat banklarining kredit portfeli va joriy likvid aktivlar ulushiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Mualliflar fikricha, past indikativ stavkalar banklarning kredit faoliyatini rag'batlantirib, iqtisodiyotda pul aylanmasini tezlashtirsa, yuqori stavkalar likvidlikni sun'iy cheklab, bank tizimida moliyaviy xavflarni kamaytiradi[4].

Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlarda indikativ stavkalarni optimal darajada belgilash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki ularni asossiz yuqori yoki past darajada ushlab turish likvidlikning yoki ortiqcha oshishi, yoki keskin pasayishiga olib kelishi mumkin.

Indikativ foiz stavkalari likvidlikni tartibga solishning samarali monetar mexanizmi bo'lib, ular orqali banklar kredit siyosatini moslashtiradi.

O'zbekistonda 2020–2024-yillarda stavka pasaygan yillarda likvidlik oshganligi statistik jihatdan tasdiqlandi.

Ilmiy nazariyalar va amaliyot natijalariga ko'ra, indikativ stavkalarni tartibga solishda inflyatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasida optimal muvozanat saqlanishi lozim.

Qayta moliyalashtirish stavkasi (QMS) – tijorat banklari uchun markaziy bankdan qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish narxini belgilaydigan asosiy indikativ ko'rsatkich hisoblanadi. U bank tizimidagi likvidlikni tartibga solishda eng ta'sirchan monetar instrument sifatida muhim ahamiyatga ega. QMS o'zgarishi orqali markaziy bank iqtisodiyotdagi pul taklifi, kredit resurslari va investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa bevosita tijorat banklari likvidligida namoyon bo'ladi.

Klassik iqtisodiy nazariyalarda (Smit A., Sey J.B.) likvidlikni tartibga solish bozorning "ko'rinmas qo'l" mexanizmi orqali amalga oshishi kerak, deb hisoblansa, J.M. Keynesning likvidlik afzalliklari nazariyasida davlatning faol aralashuvi va qayta moliyalashtirish stavkasi kabi monetar instrumentlardan foydalanish zarurligi ta'kidlangan[6]. Abdullaevning (2022) empirik tahliliga ko'ra, QMS 1% ga pasaytirilganda likvidlik koeffitsienti o'rtacha 0,5–0,7% ga oshishi mumkin[7].

Qayta moliyalashtirish stavkasi bank likvidligini tartibga solishda eng muhim indikatorlardan biri bo'lib, uning pasayishi kredit resurslari va likvid aktivlar ulushini oshiradi, stavka oshishi esa banklarni kredit siyosatini qisqartirishga va likvid aktivlar kamayishiga olib keladi. Ilmiy va amaliy tahlillar natijasiga ko'ra, QMS orqali likvidlikni boshqarishda makroiqtisodiy barqarorlik va inflyatsiya xavfini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

Banklararo kredit stavkalari – bu tijorat banklari o'rtasida qisqa muddatli likvid resurslar aylanmasini ta'minlovchi asosiy indikator hisoblanadi. Ular, ayniqsa, O/N (overnight), 7 kunlik va 1 oylik stavkalar orqali namoyon bo'lib, bank tizimidagi pul talab va taklifining real holatini yaqqol ifodalaydi. Likvidlik yetishmovchiligi yuzaga kelganda banklararo stavkalar keskin ko'tariladi, chunki banklar bir-biridan qimmat resurs jalb qilishga majbur bo'ladi. Teskarisi, likvidlik ortiqcha bo'lganda, banklararo resurslar arzonlashadi va stavkalar pasayadi. Shu bois, banklararo stavkalar likvidlik holatining “harorat o'lchagichi” sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvda J. Teylor ishlab chiqqan Taylor Rule banklararo stavkalarni markaziy bank uchun asosiy indikator sifatida belgilaydi. Unga ko'ra, agar banklararo stavkalar belgilangan maqsadli koridordan yuqori bo'lsa, markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi va ochiq bozor operatsiyalarini qayta ko'rib chiqishi lozim. Bu yondashuv amaliyotda AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya kabi mamlakatlarda keng qo'llanib kelinmoqda[8].

Teoriya nuqtayi nazaridan qaralganda, QMSning oshishi banklararo stavkalarining o'sishiga olib keladi, bu esa tijorat banklarining resurslarini qimmatlashtiradi va umumiy likvidlikni qisqartiradi. Aksincha, QMS pasaytirilganda banklararo bozordagi stavkalar ham pasayadi, natijada banklar arzon resurslarni ko'proq jalb qiladi va likvidlik yaxshilanadi. J. Teylor o'zining mashhur “Taylor Rule” nazariyasida (1993) markaziy bankning indikativ stavkasi banklararo bozor stavkalariga bevosita va tez ta'sir ko'rsatishi monetar siyosatning samarali transmissiya mexanizmining asosiy belgisi ekanini ta'kidlaydi[8]. Teylor qoidasiga ko'ra, markaziy bank inflyatsiya darajasi va yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini hisobga olgan holda QMSni mos ravishda o'zgartirishi kerak, chunki aynan indikativ stavkalar orqali iqtisodiyotdagi umumiy pul taklifi va likvidlik miqdori tartibga solinadi.

Zamonaviy iqtisodchi olimlar, jumladan P. Krugman, likvidlikni tartibga solishda QMS va banklararo stavkalar o'rtasidagi bog'liqlik moliyaviy barqarorlik sharoitida samarali ekanini, ammo iqtisodiy inqiroz davrlarida ushbu bog'liqlik susayishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Krugmanning (2010) likvidlik kapkani nazariyasida aytilishicha, markaziy bank stavkalarini pasaytirish banklar tomonidan likvidlikni oshirishga olib kelmasligi mumkin, chunki moliyaviy noaniqlik sharoitida banklar ehtiyotkorlik bilan harakat qilib, o'z mablag'larini saqlab qolishga intiladilar[9].

O'zbekistonlik olimlar - B. Tojiboev va A. Voxidovlarning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, qayta moliyalashtirish stavkasi va banklararo stavka o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya likvidlikni boshqarishning tezkorligini belgilaydi. Banklararo stavkalar yuqori bo'lgan paytda tizimdagi resurs tanqisligi kuzatiladi, bu esa likvidlik muammolarini keltirib chiqaradi. Ular ta'kidlaydiki, markaziy bankning foiz siyosatida keskin o'zgarishlar bank likvidligining keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi, shu sababdan, indikativ stavkalardagi har qanday o'zgarish aniq tahlil asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur[10].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va iqtisodiy-statistik usullar qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tijorat banklari likvidligi darajasiga indikativ foiz stavkalarining ta'sirini aniqlash va baholashdir.

Birinchidan, indikativ foiz stavkalari (asosiy stavka, depozit va kredit bo'yicha o'rtacha stavkalar) bilan tijorat banklari likvidligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar (likvidli aktivlar ulushi, joriy likvidlik koeffitsiyenti, qisqa muddatli majburiyatlar qoplash darajasi) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Bunda vaqt qatori ma'lumotlari asosida korrelyatsion-regression tahlil qo'llanib, foiz stavkalarining likvidlik ko'rsatkichlariga bo'lgan sezgirliги aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, panel ma'lumotlar tahlili yordamida 2016–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklari kesimida indikativ foiz stavkalari dinamikasining likvidlikka ta'siri baholandi. Bunda banklar kesimida makroiqtisodiy omillar, kredit portfeli sifati va foiz siyosatining natijalari qamrab olindi.

Uchinchidan, tadqiqotda Markaziy bankning monetar siyosati doirasida belgilangan asosiy stavkaning o'zgarishi va likvidlik darajasidagi tebranishlar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun Granger sababiylik testi va VAR (Vector AutoRegression) modeli qo'llanildi.

Shuningdek, indikatorlar bo'yicha baholash jarayonida xalqaro tajriba (Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Bazeli qo'mitasi tavsiyalari) bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, O'zbekiston bank tizimining o'ziga xos jihatlari ajratib ko'rsatildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Indikativ foiz stavkalari bank tizimida likvidlikni tartibga solishning eng muhim monetar instrumentlaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qayta moliyalashtirish stavkasi va moliya bozorida shakllanadigan banklararo kredit stavkalari (O/N, 7D, 1M) likvidlikni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi signal vazifasini bajaradi. Bunda yuqori stavkalar likvidlikni qisqartirsa, past stavkalar uni oshiradi.

Quyidagi jadvalda 2020-2024-yillar mobaynida O'zbekistondagi qayta moliyalashtirish stavkasi (QMS), o'rtacha banklararo O/N stavkasi va tijorat banklari joriy likvidlik koeffitsienti (JLK) dinamikasi keltirilgan.

**Jadval 1. Indikativ stavkalar va bank likvidligi dinamikasi (O'zbekiston, 2020-2024)**

| Yil  | Qayta moliyalashtirish stavkasi, % | Banklararo O/N stavkasi, % | Joriy likvidlik koeffitsienti (JLK), % |
|------|------------------------------------|----------------------------|----------------------------------------|
| 2020 | 16,0                               | 14,5                       | 36,2                                   |
| 2021 | 14,0                               | 12,8                       | 37,5                                   |
| 2022 | 17,0                               | 16,2                       | 34,7                                   |
| 2023 | 14,0                               | 13,1                       | 38,1                                   |
| 2024 | 12,0                               | 11,4                       | 40,3                                   |

Manba: O'zbekiston Markaziy banki hisobotlari (2024 yil)[5].

Ilmiy nazariyalar tahlili ham yuqoridagi natijalarni tasdiqlaydi. J.M. Keynsning "likvidlik afzalliklari nazariyasi"ga ko'ra, past foiz stavkalari banklar uchun resurslarni arzonlashtirib, kredit faoliyatini rag'batlantiradi va pul aylanmasini oshiradi. M. Fridmanning monetarizm nazariyasi esa qisqa muddatli stavka o'zgarishlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishni tavsiya etadi, chunki stavkalarning keskin pasayishi inflyatsiya xavfini kuchaytiradi.

QMS banklar faoliyatida aktivlar va passivlar tuzilishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi:

1. Aktivlar qismida:

Stavka oshirilganda markaziy bank resurslari qimmatlashadi, banklar kredit berishni qisqartiradi, likvid aktivlar ulushi pasayadi.

Stavka pasaytirilganda esa resurslar arzonlashadi, kredit hajmi ortib, likvidlik yuqori darajaga chiqadi.

2. Passivlar qismida:

Yuqori stavka banklarni depozit oqimini jalb qilish uchun yuqori foizlar taklif qilishga majbur qiladi, bu likvidlik xarajatlarini oshiradi.

Past stavka passivlarni arzonlashtirib, likvidlik xarajatlarini kamaytiradi va barqaror passivlar oqimini ta'minlaydi.

Amaliy tahlil (O'zbekiston misolida 2 jadval)

**2-jadval. 2020-2024-yillar mobaynida O'zbekistonda QMS dinamikasi va bank likvidligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik kuzatilgan.**

| Yil  | QMS, % | Joriy likvidlik koeffitsienti (JLK), % | Kredit qo'yilmalari o'sishi, % |
|------|--------|----------------------------------------|--------------------------------|
| 2020 | 16,0   | 36,2                                   | 18,4                           |
| 2021 | 14,0   | 37,5                                   | 20,1                           |
| 2022 | 17,0   | 34,7                                   | 15,8                           |
| 2023 | 14,0   | 38,1                                   | 21,3                           |
| 2024 | 13,5   | 40,3                                   | 23,5                           |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, QMS pasaygan yillarda (2021, 2023, 2024) JLK o'sgan va kredit qo'yilmalari faolligi ortib borgan. Stavka oshgan 2022 yilda esa likvidlik pasaygan.

O'zbekiston amaliyotida ham ushbu nazariy qarashlar tasdiqlanadi. Masalan, 2022-yilning ikkinchi choragida banklararo 7 kunlik stavkalar 18-19% darajada bo'lib, bu likvidlikning cheklanganligini va banklarning qimmat resurs jalb qilishga majbur bo'lganini ko'rsatgan. 2023-yilda qayta moliyalashtirish stavkasi pasaytirilishi natijasida banklararo stavkalar 14-15% atrofida tushdi, bu esa likvidlik yaxshilanganini anglatadi.

Jadval 3. O'zbekistonda banklararo 7 kunlik kredit stavkalari dinamikasi (2021–2023 yillar)

| Yil  | I chorak | II chorak | III chorak | IV chorak | Izoh                                                                      |
|------|----------|-----------|------------|-----------|---------------------------------------------------------------------------|
| 2021 | 14.5%    | 15.2%     | 15.0%      | 14.8%     | Likvidlik barqaror holatda                                                |
| 2022 | 16.8%    | 18.7%     | 18.1%      | 17.5%     | Likvidlik yetishmovchiligi, resurs tanqisligi                             |
| 2023 | 15.9%    | 14.6%     | 14.3%      | 14.0%     | Qayta moliyalashtirish stavkasi pasayishi ta'sirida likvidlik yaxshilandi |

Grafik tahlilda 2022-yilda stavkalarining keskin oshishi likvid resurslarga bo'lgan talab yuqori ekanini va bank tizimidagi mablag'lar yetishmovchiligini ko'rsatsa, 2023-yilda stavkalarining pasayishi markaziy bankning yumshoq monetar siyosati likvidlikni yaxshilaganini tasdiqlaydi.

Banklararo kredit stavkalari tijorat banklari likvidligining eng muhim indikatorlaridan biri bo'lib, ularning dinamikasi markaziy bank siyosatini to'g'ri yo'naltirishda asosiy signal vazifasini bajaradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, indikativ stavkalar orqali likvidlikni tartibga solish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham samarali mexanizm hisoblanadi.

Qayta moliyalashtirish stavkasi (QMS) tijorat banklari uchun markaziy bank resurslarini jalb qilishda asosiy indikativ ko'rsatkich hisoblanib, u banklararo kredit stavkalari uchun yo'naltiruvchi signal vazifasini bajaradi. Banklararo stavkalar esa qisqa muddatli likvidlikning haqiqiy bozor qiymatini aks ettiruvchi asosiy indikator sifatida markaziy bank monetar siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois QMS va banklararo stavkalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik likvidlikni tartibga solish samaradorligini belgilab beradi.

Amaliyot nuqtayi nazaridan qaralganda, QMS va banklararo stavkalar o'rtasidagi bog'liqlik O'zbekistonda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, 2022 yilda inflyatsiya bosimini pasaytirish maqsadida QMS 14% dan 16% gacha oshirildi va buning natijasida banklararo 7 kunlik stavkalar 15% atrofida 18.7% gacha ko'tarildi, bu esa tijorat banklari likvidligining qisqarishiga olib keldi. 2023-yilda esa QMS 14% gacha pasaytirilishi natijasida banklararo stavkalar 14.6% atrofida tushdi va likvidlik holati yaxshilandi.

Jadval 4. O'zbekistonda qayta moliyalashtirish stavkasi va banklararo stavkalar dinamikasi (2021–2023 yy.)

| Yil  | Qayta moliyalashtirish stavkasi | Banklararo 7 kunlik stavka | Likvidlik holati           |
|------|---------------------------------|----------------------------|----------------------------|
| 2021 | 14%                             | 14.5%                      | Barqaror                   |
| 2022 | 16%                             | 18.7%                      | Likvidlik yetishmovchiligi |
| 2023 | 14%                             | 14.6%                      | Likvidlik yaxshilanishi    |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari qayta moliyalashtirish stavkasi (QMS) va banklararo 7 kunlik stavkalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniq namoyon qiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki:

2021-yilda QMS 14% darajasida barqaror saqlandi va banklararo 7 kunlik stavka ham unga yaqin 14.5% atrofida shakllandi. Bu davrda bank tizimida likvidlik barqaror holatda bo'lib, tijorat banklari resurslarini nisbatan arzon narxda jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa kreditlash hajmining o'sishi va iqtisodiy faollikning saqlanib qolishiga xizmat qildi.

2022-yilda inflyatsiya bosimini pasaytirish maqsadida QMS 16% gacha oshirildi. Natijada banklararo 7 kunlik stavka 18.7% gacha ko'tarildi. Bu qimmat resurslar tijorat banklari uchun likvidlik yetishmovchiligiga olib keldi. Banklar qimmat resurslar sharoitida kreditlashni qisqartirishga va likvid aktivlarini saqlab qolishga majbur bo'ldi. Likvidlik yetishmovchiligi banklararo bozorda resurslar uchun raqobatni kuchaytirdi va bu, o'z navbatida, passiv operatsiyalar (depozitlar) uchun yuqori foizlar taklif etilishiga olib keldi.

2023-yilda QMS yana 14% gacha pasaytirildi va banklararo stavkalar 14.6% gacha tushdi. Bu markaziy bankning likvidlikni rag'batlantirishga qaratilgan siyosatini ko'rsatadi. Arzonlashgan resurslar banklar tomonidan faol jalb qilindi, natijada kreditlash hajmi oshdi va likvidlik yaxshilanishi kuzatildi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, QMS va banklararo stavkalarining dinamikasi o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud. QMSdagi har qanday o'zgarish banklararo bozorga tezda ta'sir ko'rsatib, tijorat banklari likvidligini tartibga soladi. Demak, QMSni maqsadli o'zgartirish bank tizimi likvidligini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi. Ammo yuqori QMS likvidlikni cheklab qo'yishi, uzoq muddatda esa kredit faolligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois QMS o'zgarishlari inflyatsiya, iqtisodiy o'sish va bank tizimi barqarorligi o'rtasidagi mutanosiblikni hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.



Jadval 5. 2020–2023-yillarda O'zbekiston bank tizimidagi indikativ stavkalar va likvidlik ko'rsatkichlari

| Yil  | Qayta moliyalashtirish stavkasi (%) | Banklararo 7 kunlik stavka (%) | Likvid aktivlar ulushi (%) | Kredit qo'yilmalari o'sishi (%) |
|------|-------------------------------------|--------------------------------|----------------------------|---------------------------------|
| 2020 | 16                                  | 17.8                           | 24.5                       | 12.1                            |
| 2021 | 15                                  | 16.2                           | 26.7                       | 13.4                            |
| 2022 | 14                                  | 14.8                           | 29.3                       | 15.0                            |
| 2023 | 16                                  | 18.2                           | 25.1                       | 10.6                            |

Jadval tahlilidan xulosa: qayd etilgan davrda indikativ foiz stavkalaridagi o'zgarishlar bank likvidligi va kredit faolligida mutanosib tarzda aks etgan. Stavkalar pasaytirilgan yillarda likvidlik va kredit qo'yilmalari o'sgan bo'lsa, oshirilgan yillarda pasayish kuzatilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistondagi indikativ foiz stavkalari - tijorat banklari likvidligini boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularning har qanday o'zgarishi banklar faoliyati, resurs jalbi, kreditlash siyosati hamda likvid aktivlar tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy nazariyalar va amaliyot shundan dalolat beradiki, indikativ foiz stavkalarini samarali boshqarish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari likvidligini monetar siyosat instrumentlari orqali tartibga solish mamlakat moliya tizimining barqarorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash hamda bank mijozlarining ishonchini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda Markaziy bankning foiz stavkalari, majburiy zaxiralar me'yorlari, ochiq bozor operatsiyalari va kredit siyosatini moslashtirish orqali banklarning likvidlik darajasini maqsadli boshqarish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayon nafaqat banklarning qisqa muddatli to'lovga qodirlik darajasini mustahkamladi, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka ham zamin yaratdi.

Empirik natijalar shuni tasdiqlaydiki, monetar siyosatning moslashuvchan va differensial yondashuvi bank tizimidagi likvidlik risklarini kamaytirishga yordam beradi. Xususan, ochiq bozor operatsiyalaridan samarali foydalanish, banklarning ortiqcha likvid vositalarini iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish imkonini berdi. Shuningdek, majburiy zaxira me'yorlarini o'zgartirish orqali kreditlash hajmlari va banklarning aktivlar sifati o'rtasida muvozanatni saqlashga erishildi.

Biroq, mavjud amaliyotda bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim tijorat banklarida likvidlikni prognozlash mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan, likvid aktivlar tarkibida qisqa muddatli bozor instrumentlaridan foydalanish cheklangan, xalqaro amaliyotga mos risk-boshqaruv standartlari to'liq joriy etilmagan. Bu esa banklarning kutilmagan likvidlik inqirozlariga tayyorgarligini pasaytiradi.

Shu asosda, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, Markaziy bank tomonidan likvidlik monitoringi bo'yicha zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va barcha tijorat banklari uchun yagona real vaqt rejimidagi kuzatuv mexanizmini yo'lga qo'yish; ikkinchidan, banklarda likvidlik risklarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarga (Basel III) mos ichki siyosatlarni ishlab chiqish; uchinchidan, qisqa muddatli likvidlik bozorini rivojlantirish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasini kengaytirish va repo operatsiyalarini diversifikatsiya qilish; to'rtinchidan, banklarning likvidlik boshqaruvida prognozlash usullarini kuchaytirish, shu jumladan, stress-testlash amaliyotini keng qo'llash.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari likvidligini samarali tartibga solish - bu faqatgina moliyaviy barqarorlik omili emas, balki iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik mexanizmdir. Shu bois, monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish, ularni moslashuvchan va bozor talablariga javob beradigan tarzda qo'llash mamlakat bank tizimi kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keynes Dj.M. Obuqaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: GELIOS ARV, 2007. – 352 s.
2. Fridman M. Kolichestvo deneg i povedenie ekonomiki. – M.: Delo, 2002. – 411 s.
3. Bernanke B. The Courage to Act: A Memoir of a Crisis and Its Aftermath. – New York: W.W. Norton & Company, 2015. – 610 p.
4. Abdullaev Sh.X., Xodiev B.X. Bank tizimida likvidlikni tartibga solishda monetar instrumentlardan foydalanish samaradorligi // Bank ishi jurnali. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 25–33.



5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Asosiy stavkalar va bank likvidligi bo'yicha hisobot. – Toshkent, 2024.
6. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. – M.: Eksmo, 2007. – 960 s.
7. Abdullaev X. Monetar siyosat instrumentlarining tijorat banklari likvidligiga ta'siri: empirik tahlil. // Iqtisodiyot va moliya, 2022. – №5. – B. 45–52.
8. Taylor J.B. Discretion versus Policy Rules in Practice. Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy, 1993, Vol. 39, pp. 195–214.
9. Krugman P. The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008. – New York: W.W. Norton & Company, 2010. – 192 p.
10. Tojiboev B., Voxidov A. Pul-kredit siyosatining bank tizimi likvidligiga ta'siri. // Ilmiy amaliy jurnal – «Moliya va bank», №3, 2023. – B. 45–52.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)